



“NISHOTIY NING HUSN VA DIL DOSTONI HAMDA AYRIM MIFOLOGIK OBRAZLAR TALQINI”.

Matmusayeva Yulduzxon Mirzaliyevna

Guliston davlat universiteti

70230104-Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) yo'nalishi

2-kurs magistranti. Elektron

manzil:matmusayevayulduz896@gmail.com, .Tel:+998945851
209

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15386814>

ARTICLE INFO

Received: 28th April 2025

Accepted: 30th April 2025

Published: 10th May 2025

KEYWORDS

*doston, folklor, mif, syujet,
asotir, ertak, motiv, mifologik
tasavvur, estetik kuch, , epos, rivoyat,
detal, komil inson, an'ana*

ABSTRACT

Mazkur maqolada Muhammadniyoz Nishotiyning “Husn va Dil” dostonidagi ayrim mifologik obrazlar, dostonning xalq og'zaki ijodi bilan o'xshash tomonlari tahlil qilingan. Shuningdek, shoirning xalq an'analari, diniy-mifologik tasavvurlar bilan epik uslubni uyg'unlashtirgani haqida so'z yuritildi. Maqolaning dolzarbligi, doston kompozitsion qurilishi boshqa dostonlarda uchramaydigan o'ziga xos farqli jihatlarini yoritib berishdir.

Miflar og'zaki hikoya qilishga, gapirib berishga, bayon etishga mo'ljallanganligi sababli og'zaki nasr namunalari qatoriga kiritiladi. Ularda muayyan bir qisqa syujet bayon etiladi, mo'jizaviy voqelik tafsili ustunlik qiladi. Xalq prozasining badiiy shakl tiplaridan biri bo'lgan miflar “asotirlar” nomi bilan ham yuritiladi. “Mif” so'zi aslida grekcha “mythos—so'z, rivoyat” so'zidan olingan.¹

Mumtoz adabiyotda ko'p uchraydigan “tiriklik suvi” (obi hayot) timsoli Sharq falsafasi va sufiy dunyoqarashining eng chuqur qatlamlarini o'zida mujassam etgan yuksak ma'naviy g'oyani ifoda etadi. Mazkur tushuncha, ko'pincha, abadiy hayot, haqiqatni anglash, ma'naviy poklanish, mutlaq kamolotga erishish yo'lidagi intilishni ramziy shaklda ifodalab kelgan.

Nishotiy qalamiga mansub “Husn va Dil” dostonida aynan “obi hayot” g'oyasi asar syujetining ichki harakatlantiruvchi kuchi, poetik afkor markazi sifatida talqin etiladi. Doston voqealari tiriklik suvi – “chashmai hayvon”ni topish yo'lidagi izlanishlar, fidokorona sarguzashtlar, ichki va tashqi kurashlar bilan chambarchas bog'liq. Shu jihatdan qaraganda, “obi hayot” tushunchasi tashqi shaklda fizik abadiylikni, ichki mohiyatda esa ma'naviy yuksalish, kamolot, roshnolik ramzini ifoda etadi.

Shahzoda Fuodning hayoti ham aynan shu afsonaviy suvni topishga qaratilgan muqaddas safar bilan bog'liq. Tiriklik suvi — ilohiy haqiqat, ruhiy uyg'onish manbai sifatida talqin etiladi. Bu bilan muallif nafaqat bir rivoyatga badiiy libos kiydiradi, balki o'quvchini ham Haqiqat sari yetaklaydi. Doston qahramonlari, ayniqsa, Fuod va Nazar, bu yo'lda nafaqat jismoniy mashaqqatlarga duch kelishadi, balki ma'naviy, ruhiy o'zgarishlarni ham boshdan kechiradilar:

Topti Fuod ushbu so'ziga vuquf,

Dediki: Ey donish aro faylasuf.

¹ Mif va badiiy ijod. O'quv qo'llanma. O'rayeva D, Otajonova M, Nurullayeva S. Fan ziyosi—2024. 6-bet.

Asli nasabdin biza berding xabar,
Ayla hasabdin yana ham bahravar.
Ya'ni chekib ul deganing suratin,
Bizga ayon ayla aning tal'atin².

“Husn va Dil” dostoni markazida turgan asosiy qahramonlardan biri — shahzoda Fuod obrazidir. Bu obrazga muallif afsonaviy mohiyat, ramziy yuksaklik va ruhiy komillik belgilarini mujassamlashtirgan. Shahzoda Fuodning tug'ilishi, uning ajoyib qiyofasi, odob-axloqi, zukkoligi va orzu-maqсадlari orqali muallif ideal inson siymosini yaratishga intiladi.

Fuod tug'ilishidan boshlab sulton va malikaga rahmat sifatida nozil bo'lgan farzand sifatida taqdim etiladi. Bu jihati bilan u xalq rivoyatlaridagi “mo'jizaviy farzand”, “sadoqatli najotkor” kabi mifologik qahramonlarga o'xshaydi. Uning tashqi go'zalligi, ichki komilligi, donishmandligi va saxovati haqida doston davomida ko'plab obrazli ifodalar berilgan.

Shahzoda Fuodning obraziga yuklangan bu yuksak badiiy va axloqiy yondashuv orqali Nishotiy o'z asarida ilohiy ilhom bilan yo'g'rilgan ideal inson timsolini yaratadi. Bu obraz bir paytning o'zida Sharq adabiyotidagi an'anaviy komil inson timsoli, sufiyona tafakkurdagi “valiy banda” tushunchasini ham eslatadi. Shunday qilib, Fuod obrazi dostonning g'oyaviy va poetik asoslarini belgilovchi yetakchi qahramon sifatida shakllanadi.

Doston voqealarining rivojida muhim rol o'ynaydigan qahramonlardan biri — bu Nazar obrazidir. U dastlab shahzoda Fuodning xizmatkori sifatida tanitiladi, ammo voqealar davomida o'z jasorati, sadoqati va fidoyiligi bilan e'tiborni tortadi. Nazar — qahramon emas, biroq haqiqiy do'st, sadoqatli yo'ldosh, ko'ngil yo'riqchisi sifatida namoyon bo'ladi. Aynan shu jihatlari uni dostonidagi eng yorqin ikkilamchi obrazlardan biriga aylantiradi.

Nazarning badiiy qiyofasi xalq og'zaki ijodidagi ko'plab sadoqatli xizmatkorlar, donishmand yo'ldoshlar va ustomon yordamchilarga o'xshash obrazlar tizmasiga kiradi. Uning shaxsiy manfaatini emas, balki do'stiga sadoqatni ustun qo'ygan fazilati, fidoyiligi va murakkab holatlarda ko'rsatgan matonati o'quvchida chuqur ta'sir qoldiradi. Ayniqsa, Nazarning yolg'iz o'zi yovuz kuchlarga qarshi kurashishi, jismoniy va ruhiy og'irliklarga dosh berib, yo'lni davom ettirishi doston drammatizmini kuchaytiradi.

Muhabbat ulug'langan joylarda ko'pincha tasavvufiy yoki mifologik tasvirlar paydo bo'ladi. Masalan, ularning visoli “qirq kunlik to'y” bilan yakun topadi — bu esa qadimiy bayram va mifologik birlik g'oyalarining badiiy ifodasidir. Qirq kunlik to'y Sharq mifologiyasida mukammallik, qanoat va abadiyat ramzidir. Aynan shu timsol bilan muallif ushbu sevgi nafaqat insoniy, balki kosmik va ilohiy darajadagi birlashuv ekanini ta'kidlaydi.

“Bor edi Yunonda bir podshoh...” kabi boshlanishi kitobxonni odatiy dunyoqarashdan chetlashishga, yangi, sehrli dunyo eshiklaridan kirishga tayyorlaydi. Bu esa mifologik obrazlar, ertaknamo sarguzashtlar va mo'jizakorliklar bilan to'la adabiy makonda voqealar kechishini bildiradi. Bunday boshlanish usuli bilan Nishotiy o'z dostoni uchun og'zaki ijod va xalq an'analaridan kuchli poetik tayanch topadi. Ayniqsa, Yunon yurti deb ko'rsatilgan makon antik falsafiy va mifologik qatlamlar bilan uzviy bog'lanadi, bu esa voqealarning universal mohiyatini kuchaytiradi.

Nazarning jasorati va vafodorligi shunchalik chuqur tasvirlanadiki, u har bir sarguzashtda nafaqat jismoniy, balki ma'naviy jihatdan ham yetuk shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Uning yurakdagi sabr-toqati, aqlli va matonatli qarorlari, hatto, o'z hayotini xavf ostiga qo'yib

²Nishotiy. Husn va Dil. 109-bet.

bo'lsa-da, do'sti yo'lida kurashishga tayyorligi an'anaviy epik qahramon fazilatlarining namunasi bo'lib xizmat qiladi.

Bu obrazda qadimiy epos qahramonlariga xos "dostoniy qahramonlik arxetipi" kuchli ifoda etilgan. Ayniqsa, uning jasoratli yo'li O'rta asr Sharq adabiyotida yetuk insoniylik idealiga aylangan qahramonlar — Layli va Majnundagi Qays, "Yusuf va Zulayho"dagi Yusuf obrazlari bilan hamohang talqin etiladi. Nazarning do'sti uchun o'z jonini fido qilishga tayyorligi esa uni badiiy qahramon sifatida kitobxon qalbiga yaqinlashtiradi va obrazning mifologik-estetik kuchini oshiradi.

Nishotiy "Husn va Dil" dostonida xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan, qadimiy mifologik tasavvurlar asosida shakllangan turli sehrli buyumlar motividan mahorat bilan foydalanadi. Bunday sehrli buyumlar qadimiy dunyoqarashda insonni muhofaza qiluvchi, unga kuch-quvvat, baraka, ba'zida esa ko'rinmaslik, parvoz qilish, suzish, dushmandan himoyalaniş kabi favqulodda imkoniyatlar beruvchi qudratli timsollar sifatida qabul qilingan. Doston voqealarida aynan "aqiq muhra" va "xotami la'l" shunday rollarni bajaradi.

Doston voqealarida bu buyumlar nafaqat bezak va timsol sifatida, balki dramaturgik vosita sifatida ham ishlatiladi – ular orqali syujet rivojlanadi, qahramon xavf-xatarli holatlarda najot topadi, ishq va do'stlik sinovlaridan o'tadi. Ayniqsa, bu vositalarning samoviy va ilohiy kuchlar bilan bog'langan tarzda talqin etilishi dostonning mifologik qatlamini chuqurlashtiradi:

Uyqusidin ochdi ko'zin devi shom,
Ko'rdi, munavvar edi olam tamom.
Qochdi ko'rub nurni zulmatsirisht,
Qasri jahon bo'ldi chu bog'i bihisht³.

"Husn va Dil" dostonida visol va to'y motivi faqatgina voqelik sifatida emas, balki ramziy-mifologik mazmun kasb etgan holda aks etadi. Husnning go'zalligi, Dilning fidoyiligi, Nazarning sadoqati — bularning barchasi ushbu visol orqali mukofotlanadi. Qahramonlarning azob-uqubatlardan so'ng orzusiga yetishi, iztiroblar evaziga baxtli yakunga erishishi qadimdan mifologik tushunchalarda mavjud bo'lgan qahramonlik sinovlarining muqarrar natijasidir.

Shu sababli, dostondagi visol va qirq kunlik to'y holati oddiy epik detal emas, balki o'ziga xos mifologik qatlamga ega timsoliy tugashdir. Bu bilan Nishotiy xalq an'analari, diniy-mifologik tasavvurlar va epik uslubni uyg'unlashtirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mif va badiiy ijod. O'quv qo'llanma. O'rayeva D, Otajonova M, Nurullayeva S. Fan ziyosi—2024. 6-bet.
2. Xolid Rasulning Nishotiy "Husn va Dil" dostoni. Toshkent -1967.
3. M. Jo'rayev, D. O'rayeva. O'zbek mifologiyasi. Darslik. Toshkent-2019.
4. O. Safarov. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent-2010.
5. O'zbek folklori. T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo'rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov. Darslik. Toshkent-2020.
6. Mirzaliyevna, M. Y. (2024). MUHAMMADNIYOZ NISHOTIYNING "HUSN VA DIL" DOSTONI. ASARDA FOLKLOR AN'ANALAR. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(1), 145-147.
7. Mirzaliyevna, M. Y. (2025). "XVIII ASR O'ZBEK YOZMA ADABIYOTI VA XALQ OG'ZAKI IJODI ASARLARI ORASIDAGI UYG'UNLIK HAMDA O'ZIGA XOSLIK". *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(4), 185-187.

³Nishotiy. Husn va Dil. 91-bet.

8. Kholbekovna, F. O. (2021). The issue of artistic idea in poetry. *European Scholar Journal*, 2(4), 233-236.
9. Kholbekovna, F. O. (2022). The artistic-aesthetic nature of rauf parfi's poetry. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(5), 332-340.
10. Fayzullayeva, O. X. (2020). Diversity in writing Uzbek sonnets. *Theoretical & Applied Science*, (4), 627-633.

